

✚ узоқ муддатда фискал барқарорликни сақлашга ёрдам беради.

Ўзбекистон мисолида солиққа оид масалаларни чуқур таҳлил қилиш фискал муаммоларни ҳал қилиш, иқтисодий ўсишни рағбатлантириш ва ривожланиш мақсадларига эришиш учун муҳим аҳамиятга эга. Бу ҳукуматга даромадларни ишлаб чиқаришни иқтисодий самарадорлик ва тенглик билан мувозанатлаштирувчи асосли қарорлар қабул қилиш имконини беради.

Адабиётлар:

1. Исаев Ф. Совершенствование налогообложения имущества //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 6. – С. 326-333.
2. Исаев, Ф. (2023). Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 11(1), 394–401. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a42
3. Исаев, Ф. (2022). Ўирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини такомиллаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 317–326. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/955>
4. Исаев Ф. Аудит самарадорлигининг назарий-амалий талқини //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 359-361.
5. Исаев, Ф. (2023). Солиқ юкини камайитиришда солиқ таҳлилининг таъсирига оид назарий мулоҳазалар. International Journal of Economics and Innovative Technologies, 11(2), 415–421. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss2/i41
6. Исаев Ф. И. Солиқ текширувларини рақамлаштириш зарурияти. //Бизнес-эксперт” илмий журнали. – 2021. – Т. 6. – С. 52-54.
7. Исаев, Ф. (2023). Солиқларнинг фаровонликка таъсири назарияси. "Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish Va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari" Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materiallari to'plami., 206–208. Retrieved from <https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/view/393>
8. Исаев, Ф. (2023). Солиқ таҳлили - иқтисодий таҳлилнинг таркибий қисми. Nashrlar. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/35>
9. Исаев, Ф. (2021). Солиқ юкини аниқлаш методикасини такомиллаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, (6), 86–91. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a286

MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Rustamov Maqsud Suvonqulovich

TMI DSc.,

Valiqulova Nurijahon Xusnidinovna

TMI talaba

Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini avvalambor insoniyat jamiyatida pulning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq bozor munosabatlarini amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko'rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson sivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari hamda faoliyat

turlari ortib, manfaatlari tobora o'sib, ularning xaq-huquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta'minlanib borishidadir.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada takomillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallasib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global iqtisodiyot rivojini belgilamoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston moliya bozorida qator muhim o'zgarishlar ro'y berdi, xususan, "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [4]ga muvofiq, fond bozori aylanmasini joriy etish orqali iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni 200 million AQSH dollaridan 7 milliard dollargacha oshirish va davlat ulushi bo'lgan tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash, 2026-yil oxiriga qadar bank tizimi aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bunda tijorat banklarida transformatsiyani jadallashtirish, subsidiyal kreditlashdan voz kechish, ularning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish orqali davlat ulushiga ega tijorat banklarini faol ravishda zamonaviy institutlarga aylantirish ishlari ko'zda tutilgan. Kelgusida mamlakatimizda milliy bozorni rivojlantirish, tartibga solish, infratuzilmani, moliya bozorining mavjud vositalarini takomillashtirish va xalqaro moliya institutlarini jalb qilish uchun mintaqaviy investitsiya moliya markazini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Sohada hali natijaviy yondashuvni kutayotgan, ayniqsa, qonunchilikdagi takomilga muhtoj bo'lgan normalar talaygina. Ayniqsa, korporativ boshqaruv va moliya sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, qimmatli qog'ozlarni sotish orqali jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha ishlarni yanada jonlantirish lozim. Chunki bu kamchiliklar moliya bozori va xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq dasturlar ijrosi samaradorligini oshirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga salbiy ta'sir ko'rsatyapti.

Buning uchun bir necha yangi qonunlar qabul qilish oldimizda turgan vazifalardan. Jumladan, moliya bozorini rivojlantirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, investorlar hamda fond bozorining boshqa ishtirokchilariga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini qabul qilinishini yanada tezlashtirish kerak.

Shu boisdan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan «2020-2025-yillarda moliya bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10-15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlandi»[1]. Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda moliya bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish hamda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda [3].

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orqali, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o'zlari uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan korxona, tashkilot va aholi o'zlarining vaktincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar sotib olishga yo'naltirib foyda ko'radilar. Bu esa moliyaviy resurslarning harakatini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir [3].

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, yuqoridagi kabi yurtimizda moliya bozorining rivojlanishida aholining moliyaviy savodxonlik darajasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, jahon amaliyotining ko'rsatishicha aholi o'z mablag'aridan to'g'ri foydalanish, o'z xarajatlari va jamg'armalarini rejalashtirish, investitsiyalashni ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, favqulotdagi vaziyatlar uchun zarur bo'lgan mablag' jamg'arish borasida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaganliklari sababli, samarasiz qarorlar qabul qilishadi va o'zlarini moddiy farovonligini oshirish uchun salohiyatlaridan, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydilar. Kishilarni qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarini samaradorligini oshirish uchun aholining moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etish zarur. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish AQSH, Buyuk Britaniya va Avstraliyani davlat iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari AQSHda, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, Avstraliyada, Hindistonda, Indoneziyada, Malayziyada, Rossiyada, Chexiyada va boshqa mamlakatlarda amal qilmoqda. Ushbu mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi talab va taklif bilan bog'liq bo'lgan holda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi xizmatlari taklifiga moliya bozori parametridagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatsa, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabiga esa ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, davlatning pul-kredit va budget siyosati, intitutsional tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari aholiga ishda, uyda va jamiyatda to'g'ri iqtisodiy-moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi raqobatni kuchayishga, qonunchilik muhitini yaxshilanishiga, aholini moliya tizimiga ishonchini ortishiga va aholi jamg'armalarini kelajakda samarali investitsiyalanishiga olib keladi. 2008-yilda boshlangan inqiroz: inqiroz davrida moliyaviy savodsizlikning subjektiv va obyektiv sabablari dinamikasini o'rganish dolzarbligini oshirdi. Inqiroz aholining o'z moliyaviy mablag'lariga munosabatini qanday o'zgartirganini va aholining o'z moliyaviy savodxonligini qanday baholashini aniqlash muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tkazilgan kuzatish natijalari ko'rsatishicha davlatning aholi moliyaviy savodxonligini oshirish dasturini ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish kerak.

Chunki odamlar o'zining moliyaviy savodxonlik darajasini noto'g'ri baholab, moliya bozoridagi katta xavf-xatarni o'z zimmlariga olishi mumkin. Agar hukumatning maqsadi aholining moliyaviy faoliyatini o'zgartirishdan iborat bo'lsa, bu maqsadga erishish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirishga sarflanishi kerak bo'lgan mablag'ni moliya bozori institutlarini o'zgartirishga, isloh qilishga yo'naltirishi lozim.

Moliya-bank bozori rivojlanishi, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning joriy etilishi, ulardan aholi, tadbirkorlar foydalanishi darajasini yuksaltirishda ularning moliyaviy savodxonligini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha xalqaro tajribalari ilg'or yutuqlar o'rganilgan holda O'zbekistonda aholini moliyaviy savodxonligi darajasining oshirish dasturi ishlab chiqilgan holda amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi milliy iqtisodiyot, jumladan, uy, xo'jaliklari, tadbirkorlik va davlat uchun ijobiy natijalarga olib keladi. Moliyaviy savodxonlik fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida faol pozitsiyani egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisidir [2].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan kelib chiqib, aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning quyidagi sabablarga ko'ra dolzarbligi oshib boradi:

- Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi;
- Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi;
- Aholini uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyojini keskin ortishi;
- Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi;
- Aholi mehnat migratsiyasi miqyosini kengayishi;
- Aholining iste'mol madaniyati sohasidagi mavjud qadriyatlarining ayrim xususiyatlari.

Aholining moliyaviy savodxonlikni oshirishi mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, moliya-bank bozori xizmatlari ko'lamini oshirishga, aholini ortiqcha pul mablag'larini investitsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishga, uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti.* 2019-yil 7-oktyabr. <http://xs.uz/uzkr/post/fond-bozorini-rivozhlantirish-masalalari-muhokama-qilindi>
2. *Аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш ижтимоийиқтисодий ривожланишини таъминлашнинг омили сифатида* Г.П.Эркаева, Қарши ДУ, и.ф.н., доц.
3. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/4930/4526/9555>
4. https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144